


Suyirlitepa - Buyuk ipak yo'lidagi shahar

Suyirlitepa Ohangaron tumani Qorabuloq qishlog'ida joylashgan qadimiy yodgorlik bo'lib u shahar sifatida, o'zining original tarixiy topografiyasi, mudofaa inshootlari va monumental xarakteridagi Arki A'losi, uni o'rab olgan shahriston va markaziy diniy-mafkuraviy obyektining mavjudligi bilan ajralib turadi. Avvalambor, Suyirlitepa Buyuk ipak yo'lining qadimgi Farg'onadan Chochga Kendirsoy dovoni orqali o'tgan yo'lidagi birinchi shahar. U Qorabuloq qishlog'i zaminidan o'tilib chiqqan qadimgi buloq asosida, dastlab kichik bir qishloq, asta-sekin yirik shaharga aylangan makonda tarkib topgan. Ma'lum bo'ldiki, shahar markazida Arki-A'lo (Kuxandiz), uning atrofida shahristonlar, janubiy shahriston tashqarisida, rabod va mozor-qo'rg'onlar joylashgan. Shahar maydonining g'arbiy tomonidan Objazsoyning o'ng irmog'i-Uzunsoy o'tadi. Uning janubiy va sharqiy tomonlarini Uzunsoydan tortilgan chuqur va keng kanal o'rab olgan. Shaharning shimol tomoni Ohangaron daryosi sohili bilan chegaralangan. Shaharning umumiy maydoni taxminan 90-100 gektarni tashkil etadi.

Suyirlitepa tarixiy topografiyasini vizual o'rganish bilan birga, uning ikki obyektida qazishmalar olib borish zaruriyati tug'ildi. Birinchi navbatda yodgorlikning arxeologik stratigrafiyasini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi uning umumshahar diniy kult obyektida izlanishlar olib borishni taqozo etar edi. Shahar stratigrafiyasini o'rganish uning Arkida olib borildi.







Suyirlitepaning arxeologik stratigrafiyasi. Suyirlitepa territoriyasining o'zlashtirish tarixini o'rganish uchun yodgorlikning eng qadimgi qismi hisoblangan Arkida, uning shimoli-g'arbiy burchagida, g'arbdan sharq tomonga yo'naltirilgan 5x48 metrli stratigrafik shurf-transheya solindi. Arkning chor atrofini o'rab olgan mudofaa devori zamona o'tishi bilan nurab, tashqi tomonga yiqilgan. Ark balandligi kamida 6 metrli tabiiy tepalik ustida qad ko'targan bois, arkning chor atrofi konussimon qiyalik ko'rinish tusini olgan. Transheya kesmasida, uning g'arbiy chegarasidan 8 metr masofada Ark tepaligining chegarasi boshlanadi.

Transheya boshlang'ich nuqtasidan sharqqa tomon 13,20 sm. masofada tabiiy tepalik bag'riga kirib borgan ikki xonali yer osti "muzlatgich" kameralari yasalgan bo'lib, ularda yoz kunlari g'o'sht, sut

mahsulotlari saqlangan. Kameralar shipi (potologi) kubba shaklida, birinchi kameraning polidan shpiga qadar 1,80 sm, ustki yuzasidan polgacha 3,5 m., sharqiy devorining qalinligi 60 sm. Undan ikkinchi sharqiy kameraga o'tilgan. Uning shirinasini 2,5 m. Polidan shipiga qadar 2,60 sm. Ustki yuzasidan poliga qadar 5,24 sm. Muzlatgich kameraning ichi yuqorisidan oqib tushgan tuproq, kul, xom g'isht parchalariga to'la. Madaniy qatlamlar har xil qalinlikda g'arbdan sharqqa tomon oqib tushgan.

Transheyaning g'arbiy chegarasidan 24 metr masofada materik ustida ikki qator paxsa devori mavjud, uning balandligi 2,5 metrdan kam emas. Har bir paxsa orasiga bir qator xom g'isht terib chiqilgan. So'ng ustiga 0,5 m. shag'al yotqizilgan. Transheya kesmasida, shag'al ustida nuragan mudofaa devor parchalari aralash tuproq, qul, sopol, tosh va boshqa narsalar qarishmalaridan iborat madaniy qatlam hosil bo'lgan. Uning tepa qismida linza shaklida qatlam-qatlam kulga to'la ovalsimon chuqurchalar (yamalar) hosil bo'lgan. Transheya kesmasining g'arbiy chegarasidan 35 metr masofada ilk o'rta asrlar davri tashqi tosh devor ochildi. Tosh devor qalinligi 80 sm, 70 sm chamasi balandlikda saqlangan. Materikdan to tosh devor yuza sathiga qadar 5 metr. Shurf-transheya kesmasidan olingan materiallarning materikdan tosh shag'al qatlamiga qadar qatlamlardan topilgan materiallar kompleksi milodiy IV-VI asrlar davriga, ya'ni Qovunchi II bosqichining oxirlari va Qovunchi III davrini xarakterlaydi. Bu davr madaniy qatlamining qalinligi 2,5 metrdan kam emas. Uning ustida 3 metrga yaqin madaniy qatlam saqlangan. Mana shu qatlam bag'rida monumental xarakterdagi devor qoldiklari bilan VII-VIII asrlar davri madaniy qatlamlari uchradi. Xuddi shu davrda Ark ustida aslzodalarning xo'jalik komplekslari qad ko'targan. Mana shu qatlamlar balandligiga yetganda shurf-transheya maydonini 13x18 m.ga kengaytirishga to'g'ri keldi. Kengaytirilgan maydonda bir xo'jalik kompleksi uy-joylari joylashgan bo'lib, u 5 xonadan iborat ekanligi aniqlandi. Kompleks ilk o'rta asrlarning VII-VIII asrlariga tegishli. Xonalarning devorlari qalin, monumental xarakter kasb etadi. Devorlarning qalinligi 1,10 sm, xonalarga kirish eshiklari ham keng, 1 metrdan kam emas. Hovliga kirish darvozasi janubiy devor o'rtasidan ochilgan. Darvozaning har ikkala yon tomonlariga uzunligi 1,80 sm, kengligi 60 smli supa yasalgan. Darvozadan birinchi xonaga kirilgan. U uzun va keng koridorsimon shaklda, Uning dastlabki razmeri 12x4m. bo'lgan. Qoraxoniylar davrida uning g'arbiy devori buzilib, qo'shimcha qurilmalar bilan kengaytirilgan. Shu munosabat bilan birinchi xonaning g'arbiy yarmi maydonida qo'shimcha qurilmalar amalga oshirilib, Qoraxoniylar davrida 3 ta parallel o'choqlar yasalgan, hatto ilk o'rta asr devorlari ustida 2 ta o'choq o'txonalari saqlangan. Uy-joy qurilmalari esa buzilib ketgan. Koridorsimon birinchi xonadan ikkinchi xonaga o'tilgan. Uni birinchi davr (IV-VI asr) poliga qadar ochildi. Xonaning poliga katta hajmdagi xomg'ishtar terib chiqilgan. Hozirda qazishma ishlari davom etmoqda.